



INGLIZ ADABIYOTIDA AYOL YOZUVCHILARNING TUTGAN O‘RNI.

Talabasi Muxiddinova Mohchexra

Namangan davlat chet tillari instituti

Filologiya va tillarni o‘qitish: ingliz tili 3-bosqich.

Annotatsiya

Maqolada ingliz adabiyotida ayol yozuvchilarning tutgan o‘rni va ularning adabiy jarayondagi hissiy yoritiladi. Shuningdek, J.K. Rowling, Jeyn Ostin, Agata Kristi, Virjina Vulf kabi yozuvchilarning ijodi orqali ayolning jamiyatdagi mavqei, ichki dunyosi va erkin fikrlashi aks ettirilgani ko‘rsatib o‘tiladi. Zamonaviy adabiyotda ayol yozuvchilarning mavqeiga ham qisqacha to‘xtaliniladi.

Kalit so‘zlar: Ingliz adabiyoti, “Harri Potter”, satira, sevgi, realizm, modernism, “Andisha va G‘urur”, gender muammolari, poeziya, zamonaviy adabiyot.

Аннотация

В статье освещается роль женщин-писательниц в английской литературе и их вклад в литературный процесс. Также показано, что творчество таких писательниц, как Дж. К. Роулинг, Джейн Остин, Агата Кристи и Вирджиния Вулф, отражает положение женщин в обществе, их внутренний мир и их свободомыслие. Также кратко обсуждается положение женщин-писательниц в современной литературе.

Ключевые слова: английская литература, «Гарри Поттер», сатира, любовь, реализм, модернизм, «Гордость и предубеждение», гендерные вопросы, поэзия, современная литература.

Abstract

The article highlights the role of women writers in English literature and their contribution to the literary process. It also shows that the work of writers such as J.K. Rowling, Jane Austen, Agatha Christie, and Virginia Woolf reflects the position of women in society, their inner world, and their free thinking. The position of women writers in modern literature is also briefly discussed.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

Keywords: English literature, “Harry Potter”, satire, love, realism, modernism, “Pride and Prejudice”, gender issues, poetry, modern literature.

Adabiyot inson tafakkuri, tuygʻulari va jamiyatdagi turli muammolarning badiiy ifodasidir. Ayniqsa, ingliz adabiyoti uzoq tarixiy taraqqiyot yoʻlini bosib oʻtgan, boy anʼana va janrlar xilma-xilligiga ega boʻlgan yirik adabiy maktablardan biridir. Ushbu maktabning shakllanishi va rivojlanishida erkak yozuvchilar bilan bir qatorda, ayol adibalarning ham beqiyos hissi boʻlgan. Biroq tarix davomida ayollar ijodiga yetarli eʼtibor berilmagan, ularning asarlari koʻpincha erkak taxalluslari ostida chop etilgan yoki ijtimoiy meʼyorlar sababli cheklovlariga duch kelgan. Aynan shunday sharoitda irod qilgan ayol yozuvchilarning oʻz ovozi topishi, adabiy maydonda mustahkam oʻrin egallashi katta jasorat va irodani talab qilgan. Angliya adabiy muhitida ayollar dastlab lirik sheʼriyat, xatnavislik yoki xristian axloqiga oid asarlar orqali koʻproq namoyon boʻlishgan boʻlsa, XIX asrga kelib roman janrining ommalashuvi bilan ular oʻz fikr va qarashlarini kengroq ifoda eta boshladilar. Ayniqsa, Jeyn Ostin, Bronte opa-singillari, Meri Shelli kabi ijodkorlar oʻz asarlari orqali nafaqat adabiyotda, balki jamiyatda ham ayol obrazining yangicha talqinini yaratdilar. Ularning ijodi orqali ayol ruhi, ichki kechinmalari, jamiyatdagi oʻrni chuqur yoritildi. Bugungi kunda ingliz ayol yozuvchilari nafaqat Britaniya, balki butun dunyo adabiyotida muhim oʻrin tutadi. Ularning asarlari zamonaviy feministik qarashlar, ijtimoiy tenglik, shaxsiy erkinlik, ruhiy izlanish kabi masalalarni ilgari surib, millionlab oʻquvchilarga ilhom bagʻishlamoqda. Ushbu maqolada ingliz adabiyotining turli davrlarida irod qilgan ayol yozuvchilarning adabiy merosi, ularning oʻziga xos uslubi, mavzu tanlovi va adabiyot rivojiga qoʻshgan hissi tahlil etiladi. Shuningdek, ayol yozuvchilarning jamiyatdagi stereotiplarga qarshi kurashi, oʻz shaxsiyati va ijodiylikini qanday ifodalaganlari yuzasidan ham mulohaza yuritiladi.

Shuningdek, ingliz adabiyotida ayol yozuvchilar oʻz asarlari orqali adabiyotni yanada boyishiga sababchi boʻlganlar. Bunga misol sifatida, “Harri Potter” haligacha sevib oʻqiladigan seriyalar muallifi J.K. Rowlingni, ijtimoiy satira, sevgi, turmush va ayollarning jamiyatdagi oʻrni haqidagi romanlari bilan mashhur Jeyn Ostinni va boshqa ayol yozuvchilarni bilamiz. Dastlab, ingliz adabiyoti tarixiga yuzlanadigan boʻlsak, ayol yozuvchilar uzoq vaqt davomida oʻz ismlari bilan emas,



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

aksincha erkak taxalluslar ostida o‘z asarlarini kitobxonlarga yetkazishgan. Ammo, vaqtlar o‘tishi bilan ayol yozuvchilar o‘z asarlarini ismlari ostida taqdim eta boshlaganlar. Realizmning asoschilaridan biri Jeyn Ostinning “ Andisha va G‘urur” asari ingliz adabiyotining durdona asarlaridan sanaladi. Bu asarda sevgi, turmush, ayollarning jamiyatdagi o‘rni kabi mavzular yoritilgan. Adabiyotda modernism davri kirib kelgach, ayollarning hayoti , gender muammolari kabi mavzularda ayol yozuvchilardan Virjina Vulf turli asarlar taqdim etgan. Ingliz adabiyotida ayol yozuvchilar adabiyotning turli yo‘nalishlarida ijod etishgan. Bunga yorqin misollar, ilmiy fantastika janridagi asarlari orqali tanilgan Meri Shilli, detektiv va sarguzasht janrdagi asarlari bilan mashxur Agata Kristi, ijtimoiy romanlar ustasi Jeyn Ostin, modernist yozuvchi Virjina Vulf kabi ayol yozuvchilar ingliz adabiyotining jahon miqyosida tanilishiga sababchi bo‘lishgan. Zamonaviy adabiyotda ayollar nafaqat roman yozishda, balki esse, drama, poeziya va ilmiy fantastika yo‘nalishlarida ham faol. Margaret Atwood, J.K.Rovling, Zadie Smith kabi yozuvchilar bugungi kunda millionlab o‘quvchilarga ega.¹ Xulosa qilinadigan bo‘lsa, ingliz adabiyotida ayol yozuvchilarning tutgan o‘rni va ta‘siri katta.Ularning yozgan asarlari tufayli jamiyatdagi ayollarning muammo va qiyinchiliklari olib chiqildi va buning natijasida muammolarga yechim topildi, ayol yozuvchilar ham erkak yozuvchilardan qolishmagan holda yetuk asarlarni yarata olishi isbotlandi.Ko‘plab ayol yozuvchilar adabiyot bo‘yicha mukofotlar va sovrinlarga, Nobel mukofotiga sazovor bo‘lishdi.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro‘Yhati

- 1.A Room of One’s Own by Virgina Woolf 1929.
- 2.A Literature of Their Own:British Women Novelists from Bronte to Lessing by Elaine Showalter 1977.
- 3.The Madwoman in Attic by Sandra M.Gilbert and Susan Gubar 1979.
- 4.How to Suppress Women’s Writing by Joanna Russ 1983.
- 5.Women ‘s Writing: A Critical Guide by Patricia Demers 2002.
- 6.Women Writers: Voices in English Literature Janet Todd.

¹ J.K.Rovling Harri Potter seriyasi.